


### III. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi. Natijada, 2021 yil yanvar–dekabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 388,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi. O‘sish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 119,3 % ni tashkil etdi.


#### Ellikqal’a tumanida jami xizmatlarning o‘sish sur‘atlarining dinamikasi %da



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish**  
(2021 yil yanvar-dekabr oylari uchun)

	<i>mln.so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>jamiga nisbatan % da</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>388579,5</b>	<b>119,3</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	34931,3	113,1	9,0
moliyaviy xizmatlar	46339,3	119,3	11,9
transport xizmatlari	99224,4	112,0	25,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	98569,8	107,5	25,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	4010,7	100,1	1,0
savdo xizmatlari	124970,1	125,7	32,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	13634,5	129,3	3,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	8393,5	117,1	2,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1447,0	106,6	0,4
ijara xizmatlari	9841,1	144,0	2,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	16573,1	115,6	4,3
shaxsiy xizmatlar	24139,0	111,9	6,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	142,3	106,8	0,0
boshqa xizmatlar	4933,3	120,6	1,3


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
(ko'rsatilgan) bozor xizmatlarning hajmi  
(yanvar-dekabr oylarida)**



Ellikqal'a tumanida eng katta xizmat hajmi savdo xizmatlar (124970,1 mln. so'm) va transport xizmatlari (99224,4 mln. so'm)ga to'g'ri keladi.

Eng kichik xizmat hajmi esa me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (142,3 mln. so'm), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1447,0 mln. so'm), va yashash va ovqatlanish xizmatlari (4010,7 mln. so'm)ga to'g'ri keladi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, foizda**  
(yanvar–dekabr oylarida)



Ellikqal'a tumani bo'yicha yuqori ulush savdo xizmatlari (32,2 %)da qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan ulush me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,04 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (0,4 %) va yashash va ovqatlanish xizmatlari (1,1 %) da qayd etildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati (yanvar–dekabr oylarida)



Ellikqal'a tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari ijara xizmatlar (144,0 %) va savdo xizmatlari (125,7 %) da qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari yashash va ovqatlanish xizmatlari (100,1 %) me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (106,8 %) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (106,6 %) da qayd etildi.